

Prezident Toshkent shahridagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14 mart kuni Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Tashkent City xalqaro biznes markaziga tashrif buyurib, kongress-xoll va besh yulduzli mehmonxona qurilishi bilan tanishdi. Mazkur inshootlar qurilishi o'tgan yil mart oyida boshlangan bo'lib, bugungi kunda muhtasham kongress-xoll va 21 qavatli mehmonxonaning beton-karkas ishlari nihoyasiga yetgan. Hozirda metall konstruksiyalar va kommunikatsiyalarni montaj qilish, tomni yopish, tashqi pardozlash ishlari olib borilmoqda.

Prezidentimizga kongress-xollning fasadi, xonalari va yo'laklarining ko'rinishiga doir loyihalar namoyish etildi.

Tashkent City biznes-markazlar, mehmonxonalar, ofislar, ko'p qavatli uylar, restoranlar va boshqa obyektlarni o'z ichiga olgan zamonaviy kompleks bo'ladi. Bu yerda oliy darajadagi tadbirlar, yirik xalqaro anjumanlar o'tkaziladi.

Shavkat Mirziyoyev kongress-xollning asosiy zali, har bir xonasini ko'zdan kechirib, ularning qanday bezatilishi va jihozlanishi, mehmonlar uchun qanday sharoitlar yaratilishi bilan qiziqdi. Xalqaro sammitlar chog'ida ko'plab delegatsiyalar qatnashishini inobatga olib, yuqori martabali mehmonlar va ishtirokchilarning harakatlanishi, ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar o'tkazishi, dam olishi uchun keng qulayliklar yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Kongress-xollning birinchi qavati zamonaviy dizaynda, ikkinchi qavati esa klassik uslubda bo'lishi zarurligini ta'kidladi. Yo'laklarni yurtimiz rassomlarining eng sara asarlari bilan bezatishni taklif qildi.

Kongress-xoll yonida qurilayotgan mehmonxonaga oid loyihalar ham namoyish etildi.

Shu bilan birga, Prezident Tashkent City yaqinida qad rostlagan "Humo Arena" muz saroyida olib borilayotgan so'nggi pardozlash ishlarini ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari 2017 yil 3 fevral kuni ushbu majmua loyihasini ma'qullab, uning qurilishiga tamal toshi qo'ygan edi. O'tgan qisqa vaqtda mamlakatimiz shaharsozligida yangilik bo'lgan ko'p tarmoqli sport majmuasi bunyod etildi.

Majmua Toshkent shahrining Olmazor va Beshyog'och ko'chalari kesishmasida, 9 gektar maydonda qurilgan. Zamonaviy muhandislik texnologiyalarini uyg'unlashtirgan "Humo Arena" majmuasidan 12,5 ming o'rinli ko'p tarmoqli muz arenasi, 200 o'rinli mashg'ulotlar maydoni, trenajyor zali, sport muzeyi va ko'plab boshqa obyektlar o'rin olgan.

Har biri 60x30 metr o'lchamdagi asosiy va mashq maydonlari musobaqalarni xalqaro talablar darajasida o'tkazish, yoshlarning sport bilan shug'ullanishi uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

Mobil o'rindiqlar sport musobaqalaridan bo'sh paytda ommaviy tadbirlarni o'tkazishga ham moslasha oladi. Bu yerda xokkey, short-trek, figurali uchish, kyorling bilan birga basketbol, voleybol, gandbol, futzal, boks, taekvondo va boshqa sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish mumkin. Bundan tashqari, bayram tadbirlari, konsertlar, ko'rgazma va forumlar tashkil etish uchun ham sharoit mavjud.

Yangi majmua mamlakatimizda sportni rivojlantirish, uning qishki turlarini ommalashtirish, sportchilar tayyorlashni yangi, xalqaro darajaga olib chiqish borasidagi ishlarga kuchli sur'at bag'ishlaydi.

Prezidentimiz majmuadan samarali foydalanish, ommaviy tadbirlar vaqtida xavfsizlikni ta'minlash, inshoot atrofini obodonlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

[O'ZA](#)